




ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

2022- yilning yanvar-may oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 694,3** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilga nisbatan **624,1** mln. AQSH dollariga yoki **58,3** % ga ko'paydi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI

(yanvar-may mln. AQSH dollari)



TSA

2022- y.: **1 694,3**

(2021- y.: **1070,2**)

O'sish sur'ati: **158,3** %

SALDO

2022- y.: **-838,6**

(2021- y.: **-420,2**)

EKSPORT

2022- y.: **427,9**
(2021- y.: **325,0**)

O'sish sur'ati: **131,6** %
Ulushi: **25,3** %

Tovarlar: **424,2**
Xizmatlar: **3,6**



IMPORT

2022- y.: **1 266,4** (2021- y.: **745,2**)

O'sish sur'ati: **169,9** % Ulushi: **74,7** %

Tovarlar: **1 215,7** Xizmatlar: **50,7**

TSAda eksport hajmi **427,9** mln. AQSH dollariga (**31,6** % ga ko'paydi) va import hajmi **1 266,4** mln. AQSH dollariga (**69,9** % ga ko'paydi) yetdi.

Hisobot davrida **838,6** mln. AQSH dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Ma'lumot uchun: Andijon viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

ANDIJON VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-may, mln. AQSH dollari)



Koreya Respublikasi

TSA – 737,2
Eksport – 0,4
Import – 736,8



XXR

TSA – 311,8
Eksport – 45,2
Import – 266,6



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 160,0
Eksport – 147,7
Import – 12,3



Qozog'iston

TSA – 145,9
Eksport – 143,2
Import – 2,7



Rossiya Federatsiyasi

TSA – 134,2
Eksport – 46,8
Import – 87,4



Turkiya

TSA – 47,0
Eksport – 21,0
Import – 26,0



AQSH

TSA – 28,0
Eksport – 0,1
Import – 27,9



Shvetsariya

TSA – 17,5
Eksport – -
Import – 17,5



Hindiston

TSA – 14,4
Eksport – 0,3
Import – 14,1




Chexiya

TSA – 10,0
Eksport – -
Import – 10,0

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, Ozarbayjon va Afg'oniston shular jumlasidandir. Qolgan 16 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**20 TA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR ICHIDA
TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI
KUZATILGAN DAVLATLAR**
(2022- yil yanvar-may)



Andijon viloyati jahonning **72** ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasida (**43,5** %), Xitoy Xalq Respublikasida (**18,4** %), Qirg'iz Respublikasi (**9,4** %), Qozog'istonda (**8,6** %), Rossiya Federatsiyasida (**7,9** %), Turkiyada (**2,8** %), AQSh (**1,7** %) va Shvetsariya (**1,0** %) da qayd etilgan.

ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSH dollari)



	Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
	Koreya Respublikasi	638,5	424,7	737,2
	<i>Eksport</i>	0,1	0,2	0,4
	<i>Import</i>	638,4	424,5	736,8
	Xitoy Xalq Respublikasi	111,4	165,3	311,8
	<i>Eksport</i>	24,9	37,6	45,2
	<i>Import</i>	86,5	127,7	266,6
	Qirg'iz Respublikasi	70,3	112,4	160,0
	<i>Eksport</i>	65,4	97,8	147,7
	<i>Import</i>	4,9	14,6	12,3
	Qozog'iston	52,0	138,7	145,9
	<i>Eksport</i>	46,0	134,9	143,2
	<i>Import</i>	6,0	3,8	2,7
	Rossiya Federatsiyasi	114,6	80,6	134,2
	<i>Eksport</i>	24,3	26,0	46,8
	<i>Import</i>	90,3	54,6	87,4
	Turkiya	25,4	36,9	47,0
	<i>Eksport</i>	3,6	10,8	21,0
	<i>Import</i>	21,8	26,1	26,0
	AQSH	5,3	28,2	28,0
	<i>Eksport</i>	0,1	0,2	0,1
	<i>Import</i>	5,2	28,0	27,9
	Shvetsariya	0,5	0,5	17,5
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,5	0,5	17,5
	Hindiston	5,0	7,7	14,4
	<i>Eksport</i>	0,1	0,2	0,3
	<i>Import</i>	4,9	7,5	14,1
	Chexiya	7,6	3,6	10,0
	<i>Eksport</i>	0,1	0,0	0,0
	<i>Import</i>	7,5	3,6	10,0

ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-may, mln. AQSH dollari)



	Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
	Braziliya	9,3	6,1	9,4
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,1
	<i>Import</i>	9,3	6,1	9,3
	Italiya	5,2	6,0	9,0
	<i>Eksport</i>	0,3	1,4	2,4
	<i>Import</i>	4,9	4,6	6,6
	Germaniya	5,9	4,2	8,5
	<i>Eksport</i>	0,1	0,3	0,5
	<i>Import</i>	5,8	3,9	8,0
	Ozarbajjon	6,8	2,3	6,2
	<i>Eksport</i>	6,4	1,7	6,0
	<i>Import</i>	0,4	0,6	0,2
	Slovakiya	3,1	2,9	5,1
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	3,1	2,9	5,1
	Eron Islom Respublikasi	1,5	3,5	4,4
	<i>Eksport</i>	0,3	0,2	0,4
	<i>Import</i>	1,2	3,3	4,0
	Polsha	3,8	5,2	4,3
	<i>Eksport</i>	0,3	0,8	0,2
	<i>Import</i>	3,5	4,4	4,1
	Tailand	26,3	9,8	4,1
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	26,3	9,8	4,1
	Afg'oniston	0,9	1,7	3,9
	<i>Eksport</i>	0,6	1,6	3,9
	<i>Import</i>	0,3	0,1	0,0
	Belarus Respublikasi	1,3	1,7	3,2
	<i>Eksport</i>	1,2	0,6	0,9
	<i>Import</i>	0,1	1,1	2,3

ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-may)*

	Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	1 694,3	158,3
Andijon sh.	211,4	162,1
Xonobod sh.	32,1	109,8
<i>hududlar:</i>		
Oltinko'l	14,2	89,5
Andijon	32,0	94,1
Baliqchi	27,7	11,4 b.
Bo'ston	10,4	112,4
Buloqboshi	9,4	166,2
Jalaquduq	24,4	190,4
Izboskan	11,0	67,4
Ulug'nor	10,5	90,8
Qo'rg'ontepa	40,2	2,4 b.
Asaka	1127,1	162,6
Marhamat	11,2	78,6
Shahrixon	46,1	173,0
Paxtaobod	8,3	126,2
Xo'jaobod	74,1	165,9

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari

Asaka – 1127,1

Andijon sh. – 211,4

Xo'jaobod – 74,1

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari

Bo'ston – 10,4

Buloqboshi – 9,4

Paxtaobod – 8,3


Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka **66,5 %** ulush bilan **1127,1** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Paxtaobod **0,5 %** ulush bilan **8,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Andijon viloyati shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan.

2022- yilning yanvar-may oylarida, Andijon viloyati tashqi savdo aylanmasining to'rtidan bir qismi yoki **26,9** % MDH davlatlariga to'g'ri kelib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilning mos davriga nisbatan ulushi **5,4** % ga kamaygan.

ANDIJON VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2022- yilning yanvar-may oylarida 2021- yilning mos davriga nisbatan **71,0** ga ko'paydi va jami TSA dagi ulushi **73,1** % ni tashkil etdi.

ANDIJON VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-may mln. AQSH dollari)



Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2022- yil yanvar-may holatiga ko'ra **455,9** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport – **349,0** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import – **106,9** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Qirg'iz Respublikasi (**35,1**), Qozog'iston (**32,0** %) hamda Rossiya Federatsiyasi (**29,4** %) davlatlari bilan qayd etildi.



ANDIJON VILOYATI EKSPORTI


(2022-yil yanvar-may)



Joriy yilning yanvar-may oylarida mamlakatning eksportyorlari soni **329** tani tashkil etib, ular tomonidan **427,9** mln. AQSH dollari qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan **31,6** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-may ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,1** % ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob-uskunolari (**34,0** %), sanoat tovarlari (**31,4** %), turli xil tayyor mahsulotlar (**29,4** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**2,8** %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**0,8** %), nooziq-ovqat xomashyo (**0,4** %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**0,3** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

ANDIJON VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-may, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Jami eksport	325,0	427,9	180,0	131,6	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11,1	11,9	87,9	107,0	3,4	2,8
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,0	110,3	14,8	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,6	1,7	28,3	30,5	1,7	0,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	3,4	1448,7	43645,3	0,0	0,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,1	8,9	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,6	1,3	68,4	215,8	0,2	0,3
Sanoat tovarlari	79,6	134,4	186,7	168,8	24,5	31,4
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	141,5	145,6	242,8	102,9	43,5	34,0
Turli xil tayyor buyumlar	84,4	126,0	190,2	149,3	26,0	29,4
Xizmatlar	2,1	3,6	144,7	172,7	0,7	0,9

ANDIJON VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-may)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2021- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	10821,3	107,8
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	484,2	80,9
Sut mahsulotlari va kush tuxumlari	470,6	2,7 b.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	66,5	68,9
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	17,5	14,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1419,4	34,7
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	184,2	18,8
56- bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	73,0	4,5 b.
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	42,0	7,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	3427,0	436,4 b.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan	0,02	38,9
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	848,6	6,1 b.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	209,3	110,9
Noorganik kimyo moddalari	114,0	145,0
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	37,4	2,6 b.


ANDIJON VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-may)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2021- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	115795,1	154,2
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qogo'z yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	7886,4	147,6 b.
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	6057,3	2,3 b.
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2355,7	2,5 b.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	90234,8	67,2
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	49361,8	400,2 b.
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	4769,2	78,1
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	902,2	113,4
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	114820,1	143,9
Poyabzal	6434,4	2,6 b.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash buyumlar	1678,2	3,9 b.
Har xil tayyor buyumlar	1491,9	115,3


MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKA (yanvar-may, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)

2022- yilning yanvar-may oylarida MDH mamlakatlariga **349,0** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **81,6** % ini tashkil etdi.



2022- yilning yanvar-may oyi yakunida eksport bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Qozog'iston (eksport umumiy hajmining **34,5** %), Qirg'iz Respublikasi (**33,5** %) va Rossiya Federatsiyasi (**10,9** %) davlatlari yetakchilik qildi. Quyidagi yetti yirik davlatlarning jami eksportdagi ulushi **96,7** % ni tashkil etdi.

VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-may, % da)



**ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI
VA O'SISH SUR'ATLARI** *(yanvar-may, yillar kesimida)*



Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Qirg'iz Respublikasi	97,8	147,7	149,5	151,0	2	1
Qozog'iston	134,9	143,2	2,9 b.	106,1	1	2
Rossiya Federatsiyasi	25,9	46,8	106,7	180,3	4	3
Xitoy Xalq Respublikasi	37,6	45,2	151,2	120,3	3	4
Turkiya	10,8	21,0	3,0 b.	195,0	5	5
Ozarbajjon	1,8	5,9	27,3	3,4 b.	8	6
Afg'oniston	1,6	3,9	2,6 b.	2,5 b.	9	7
Italiya	1,4	2,4	4,5 b.	167,7	10	8
Moldova Respublikasi	2,3	1,9	2,3 b.	82,3	7	9
Pokiston	1,1	1,3	155,3 b.	110,1	11	10
Tojikiston	0,5	1,2	42,0	2,5 b.	14	11
Ukraina	4,6	1,2	151,7	26,4	6	12
Belarus Respublikasi	0,6	0,9	55,3	137,7	13	13
Sloveniya	0,0	0,6	-	-	20	14
Germaniya	0,3	0,6	3,2 b.	195,3	18	15
Ruminiya	0,2	0,4	2,3 b.	173,8	19	16
Eron Islom Respublikasi	0,2	0,4	48,5	2,1 b.	23	17
Koreya Respublikasi	0,2	0,4	192,7	196,0	21	18
Livan	0,0	0,3	-	-	22	19
Xindiston	0,2	0,3	143,1	187,2	25	20

ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2022-yil yanvar-may)*

	Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	427,9	131,6
Andijon sh.	43,3	128,2
Xonobod sh.	15,0	87,5
tumanlar :		
Oltinko'l	10,1	117,4
Andijon	9,6	65,9
Baliqchi	20,4	1 903,7
Bo'ston	9,9	121,2
Buloqboshi	6,3	230,3
Jalaquduq	22,3	233,3
Izboskan	6,8	49,4
Ulug'nor	8,0	173,6
Qo'rg'ontepa	26,0	260,4
Asaka	161,1	110,6
Marhamat	6,6	95,0
Shahrixon	21,4	172,7
Paxtaobod	4,6	101,8
Xo'jaobod	55,0	176,5

**Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari**

Asaka – 161,1

Xo'jaobod– 55,0

Andijon sh.– 43,3

**Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari**

Marhamat – 6,6

Buloqbosh – 6,3

Paxtaobod – 4,6

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Asaka **37,6** % ulush bilan **161,1** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Paxtaobod **1,1** % ulush bilan **4,6** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Andijon viloyati shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2022-yil yanvar-may)



Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **11,4** mln. AQSH dollari qiymatidagi **35,0** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilindi. Bunda 2021- yilning mos davriga nisbatan **0,7** % ga o'sdi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksporti tarkibiga qaralsa, **7,8** mln. AQSH dollariga teng **30,3** ming tonna sabzavot, shuningdek, **2,5** mln. AQSH dollari qiymatidagi **3,0** ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2022- yil yanvar-may)



386,9 ming. AQSH doll. 689,9 t.	 Uzum 	1368,3 ming. AQSH doll. 2065,9 t.
108,4 ming. AQSH doll. 482,9 t.	 Qovun va tarvuz 	2069,8 ming. AQSH doll. 15 418,6 t.
143,2 mln. AQSH doll. 203,7 t.	 Yeryong'oq 	49,9 ming. AQSH doll. 49,1 t.
475,8 ming. AQSH doll. 333,2 t.	 Qalampir 	354,0 ming. AQSH doll. 670,9 t.

2022- yil yanvar-may oylarida meva-sabzavot mahsulotlari eksporti jami eksport hajmining **2,7** % ini tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Polsha, Belarus Respublikasi va Ozarbayjon davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2022- yil yanvar-may)

Davlatlar	tonna	ming AQSH dollari	ulushi, % da *
 Qirg'iz Respublikasi	29077,2	6327,3	58,5
 Rossiya Federatsiyasi	4582,7	3973,7	36,7
 Polsha	552,1	269,9	2,5
 Belarus Respublikasi	101,8	66,6	0,6
 Ozarbayjon	42,7	54,5	0,5
 Avstriya	32,1	43,2	0,4
 Tojikiston	38,8	43,2	0,4
 Moldova Respublikasi	8,9	21,2	0,2
 Qozog'iston	16,6	9,2	0,1
 Germaniya	4,0	6,0	0,1
 Boshqalar	22,0	6,5	0,1

* qiymat ifodasidan

2022- yil yanvar-may oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **58,5** %), bu Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan **1,6** baravar ko'p.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

(yanvar-may)



Joriy yilda **230,7** mln. AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **53,9** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **48,7** % ga o'sdi.

Yil boshidan **301** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **24** ta davlatiga eksport qilindi. Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**49,6** %), paxtadan yigirilgan ip (**34,8** %) asosiy ulushni egallagan.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-may, mln. AQSH dollari)

	2021- y.	2022- y.
Jami:	155,1	230,7
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	79,7	114,5
 Paxtadan yigirilgan ip	47,5	80,3
 Naqshli mato	17,1	18,1
 Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	3,8	4,1
 Ipak va ipak mahsulotlari	0,6	2,8
 Paxtadan gazlamalar	2,5	3,3
 Paxta mahsulotlari	3,2	2,4
 Gilamlar	0,2	2,3
 Boshqalar	0,5	2,9



DAVLATLAR KESIMIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI *(yanvar-may, mln. AQSH dollari)*



Davlatlar	2020- yil	2021- yil	2022- yil
 Qirg'iz Respublikasi	28,4	78,1	109,6
 Xitoy Xalq Respublikasi	24,9	37,3	45,2
 Rossiya Federatsiyasi	14,1	17,9	39,4
 Turkiya	3,6	7,3	20,8
 Qozog'iston	1,8	4,3	5,0
 Italiya	0,3	1,4	2,4
 Moldova Respublikasi	1,0	2,3	1,8
 Ukraina	1,3	2,1	1,1
 Pokiston	-	1,1	0,8
 Belarus Respublikasi	0,4	0,5	0,7
 Tojikiston	-	0,0	0,7
 Sloveniya	-	-	0,6
 Ozarbayjon	0,2	1,2	0,5
 Germaniya	0,1	0,0	0,5
 Boshqa davlatlar	0,9	1,3	1,6

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Qirg'iz Respublikasi (**109,6** mln. AQSH dollari – **47,5** %) va Xitoy Xalq Respublikasi (**45,2** mln. AQSH dollari – **19,6** %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2022- yil yanvar-may, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **3,6** mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **0,8** % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **72,7** % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (**33,2** %) transport xizmatlari (**24,0** %), ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish boshqa joyda tafsiflanmagan (**23,6** %), hamda safarlar (turizm) xizmatlari (**19,2** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



ANDIJON VILOYATINING IMPORTI

(2022- yil yanvar-may)




2022- yilning yanvar-may oylarida import hajmi **1 266,4** mln. AQSH dollarini va 2021- yilning mos davriga nisbatan **169,9 %** ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (**63,2 %**), sanoat tovarlari (**21,0 %**) hamda turli xil tayyor buyumlar (**5,8 %**) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-may, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-mayda import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **521,2** mln. AQSH dollariga ortdi va **1 266,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **50,7** mln. AQSH dollarig yetdi.

ANDIJON VILOYATI XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-may, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Jami import	745,2	1266,4	79,4	169,9	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	7,7	8,5	140,5	110,8	1,0	0,7
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,1	-	86,3 b.	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6,7	7,7	106,1	114,3	0,9	0,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4,4	4,3	140,1	96,5	0,6	0,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,4	0,0	35,6	1,6	0,1	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	40,5	56,3	97,0	139,1	5,4	4,4
Sanoat tovarlari	140,7	266,0	75,2	189,1	18,9	21,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	468,3	800,0	79,1	170,8	62,8	63,2
Turli xil tayyor buyumlar	42,6	72,8	77,5	171,0	5,7	5,8
Xizmatlar	33,9	50,7	73,0	149,7	4,6	4,0

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-may)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2021- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Tirik hayvonlar	3380,4	97,5
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan maxsulotlar	1714,8	129,1
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1149,5	21,8 b.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	974,1	123,6
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	108,7	86,3 b.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	2200,2	111,6
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2101,7	3,3 b.
Tabiiy kauchuk (sun'iy va regeneratsiya qilingan rezina ham)	1301,9	74,5
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	1061,7	106,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Ko'mir, koks va briketlar	2485,0	80,9
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1784,3	130,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	6,8	1,7
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan;	0,3	0,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	22182,7	118,9
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	9573,2	139,1
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	8527,9	150,6
Organik kimyo moddalari	6532,4	2,1 b.


XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-may)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSH dollari	2021- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	90145,4	2,0 b.
Metalldan tayyorlangan buyumlar	80147,2	2,7 b.
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	54604,6	159,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	25020,9	170,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Avtomobillar	599562,1	179,0
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	84150,6	181,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	57169,4	135,7
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan qismlari ham)	31669,4	157,3
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	29180,7	2,1 b.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	23193,0	196,9
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	17617,3	131,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlash moslamalari	960,3	43,7

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)

2022- yil yanvar-may natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **8,4 %** ni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **1,9 %** ga kamaydi.



2022- yil yanvar-may oylarida Andijon viloyati **63** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Turkiya, Shvetsariya va Hindiston) jami importning **92,9 %** ulushini tashkil etdi.

RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-may, % da)



ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-may, yillar kesimida)*



Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021	2022	2021	2022	2021	2022
Koreya Respublikasi	424,5	736,8	66,5	173,6	1	1
XXR	127,7	266,6	147,6	2,1 b.	2	2
Rossiya Federatsiyasi	54,6	87,4	60,5	160,1	3	3
AQSh	28,0	27,9	5,4 b.	99,4	4	4
Turkiya	26,1	26,0	120,0	99,4	5	5
Shvetsariya	0,5	17,5	100,4	35,2 b.	29	6
Hindiston	7,5	14,1	152,9	187,7	8	7
Qirg'iz Respublikasi	14,6	12,3	3,0 b.	84,1	6	8
Chexiya	3,6	10,0	47,5	2,8 b.	14	9
Braziliya	6,1	9,3	65,6	153,9	9	10
Germaniya	3,9	8,0	67,1	2,0 b.	12	11
Italiya	4,6	6,6	93,4	143,9	10	12
Slovakiya	2,9	5,1	92,2	177,3	16	13
Tailand	9,8	4,1	37,2	41,9	7	14
Polsha	4,4	4,0	123,0	92,2	11	15
Eron Islom Respublikasi	3,4	4,0	2,9 b.	118,6	15	16
Litva	0,3	3,0	96,3	10,6 b.	34	17
Qozog'iston	3,7	2,6	62,9	70,8	13	18
Meksika	1,5	2,3	48,1	155,9	20	19
Tayvan	0,5	2,3	85,0	4,6 b.	31	20

ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2022-yil yanvar-may)

	Mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	1266,4	169,9
Andijon sh.	168,1	188,4
Xonobod sh.	17,1	144,6
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	4,2	55,1
Andijon	22,4	127,0
Baliqchi	7,4	850,0
Bo'ston	0,5	37,2
Buloqboshi	3,1	91,7
Jalaquduq	2,1	71,7
Izboskan	4,3	164,7
Ulug'nor	2,5	32,1
Qo'rg'ontepa	14,2	300,5
Asaka	966,0	183,5
Marhamat	4,6	61,5
Shahrixon	24,6	185,9
Paxtaobod	3,7	196,8
Xo'jaobod	19,1	141,6

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari

Asaka t. – 966,0

Andijon sh. – 168,1

Shahrixon – 24,6

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari

Ulug'nor – 2,5

Jalaquduq – 2,1


Bo'ston – 0,5

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **76,3** % ulush bilan **966,0** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bo'ston tumani **0,04** % ulush bilan **0,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-may oyi yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **50,2 mln. AQSH dollarini** yoki jami import hajmining **4,0 %** ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **49,7 %** ga o'sgan. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi intellektual mulkdan foydalanganlik uchun to'lovlar, boshqa joyda tasniflanmagan xizmatlari (**54,9 %**), boshqa amaliy xizmatlari (**33,1 %**), ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xizmatlari (**6,8 %**), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (**4,0 %**), transport xizmatlari (**0,8 %**) va safarlar (turizm) (**0,4 %**) ga tegishli bo'ldi.

XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2022-yil yanvar-may, ulushi, % da)



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



2022- yil yanvar-may oylarida import tarkibida mashinalar va transport-asbob uskunalari hajmi **698,6** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **70,8** % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **63,2** % ga yetdi.

MASHINA VA ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2022- yil yanvar-may)



1 Koreya
Respublikasi

534,5 mln.
AQSH doll.



4 Turkiya

14,6 mln.
AQSH doll.



2 Xitoy Xalq
Respublikasi

168,8 mln.
AQSH doll.



5 Rossiya
Federatsiyasi

12,0 mln.
AQSH doll.



3 Shvetsariya

17,0 mln.
AQSH doll.



2022- yil yanvar-may oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **331,6** mln. AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berishning asosiy qismi Koreya Respublikasi - **534,5** mln. AQSH dollari (**66,8** %), Xitoy Xalq Respublikasi - **168,8** mln. AQSH dollari (**21,1** %) va Shvetsariya – **17,0** mln. AQSH dollari (**2,1** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.

SANOAT TOVARLARI IMPORTI



2022- yil yanvar-may oylarida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi **266,0** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **89,1 %** ga o'sdi va importning umumiy hajmidagi ulushi **21,0 %** ga yetdi.

SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2022- yil yanvar-may)



92,0 mln. AQSH doll.
ulushi – **34,6 %**



**Koreya
Respublikasi**

76,1 mln. AQSH doll.
ulushi – **28,6 %**



**Xitoy Xalq
Respublikasi**

65,3 mln. AQSH doll.
ulushi – **24,6 %**



**Rossiya
Federatsiyasi**

7,6 mln. AQSH doll.
ulushi – **2,9 %**



**Qirg'iz
Respublikasi**

7,1 mln. AQSH doll.
ulushi – **2,7 %**



Chexiya

Sanoat tovarlari importi asosan metallardan tayyorlangan buyumlar (**80,1** mln. AQSH dollari), cho'yan va po'lat (**90,1** mln. AQSH dollari), rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan (**54,6** mln. AQSH dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**25,6** mln. AQSH dollari), ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar (**8,9** mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.